



International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

Moliyaviy Hisobot Va Xalqaro Audit Standartlarini O‘zbekiston Respublikasida Qo‘llash Masalalari

Turumova Dildora Abdumannonovna

Jizzax politexnika instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrası o'qituvchisi
dildoraturumova1985@gmail.com

Primqulova Zarina Furqat qizi

Jizzax politexnika instituti "Kibersport" fakulteti talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqola O‘zbekistonda auditorlik tashkilotlari faoliyati va xalqaro auditorlik standartlarining bu borada tutgan o‘rni haqida tuzilgan. Hozirgi kunda ko‘plab mamlakatlar xalqaro standartlarga o‘tish orqali moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta‘minlash, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ma‘lumotlarni yaxshilashga intilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ham bu jarayonda faol qatnashmoqda va xalqaro audit standartlarini o‘z ichiga olgan milliy tizimni rivojlantirishga e‘tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlari: iqtisodiyot, audit standartlari, auditorlik firmalari, auditorlik faoliyati, moliyaviy hisobot, moliya.

Audit xizmati jamiyat uchun muhim iqtisodiy dastaklardan hisoblanganligi sababli, individual auditor va auditorlik firmalari uchun ma‘lum bir cheklovlar mavjud. Avval bu professional buxgalterlar uchun ishlab chiqilgan talablar edi. Aksiyadorlik jamiyatlarida buxgalteriya hisobining rivojlanishi buxgalter kasbiga ma‘suliyatni oshirdi va bu talablarni qonunlashtirishni taqazo etdi.

Transmilliy kompaniyalarni ko‘payishi va iqtisodiyot globallasuvi hisob tizimidan nafaqat qiyoslanuvchi ma‘lumotlar, balki sifatli va turli davlatlar hisob qonunchiligiga mos keluvchi standartlarni yaratish zaruratini vujudga keltirdi. Xalqaro amaliyotda qo‘llaniladigan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IAS/IFRS) MHXS bo‘yicha kengash tomonidan ishlab chiqiladi. Ushbu standartlarni amaliyotga keng joriy ulishida Qimmatli qog‘ozlar komissiyasi bo‘yicha xalqaro tashkilot I 1 (>SCO) va bank faoliyati nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasining o‘rni katta. Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (XBF) (Ilova -2) - buxgalter kasbi ta‘kidlarining butunjahon professional tashkilotidir. 1977 yilda ta‘sis etilgan bo‘lib, uning bosh vazifasi quyidagilar orqali jamiyat uchun xizmat qilishdir:

- yuqori sifatli xalqaro standartlarni ishlab chiqish, qabul qilish va joriy qilishga o‘z hissasini qo‘shish va yo‘riqnoma berish;

- kuchli professional buxgalterlik tashkilotlari va auditorlik tashkilotlarining rivojlanishi, hamda professional buxgalterlar tomonidan sifatli amaliyotlar qo'llanilishiga o'z hissasini qo'shish;
- butun jahonda professional buxgalterlarning mavqei yuksalishiga ko'maklashish;
- buxgalterlik kasbi sohasida masalalar yuzaga kelganda jamiyatning barcha qonunlariga rioya etilishini ta'minlash.

Xalqaro audit standartlari (ISA) - bu auditorlik faoliyatini amalga oshirishda foydalaniladigan asosiy qoidalar va prinsiplarni belgilovchi hujjatlardir. Ular auditorlarning ishini sifat jihatidan nazorat qilish, mustaqillikni ta'minlash va auditorlik xizmatlarini professional darajada taqdim etishni maqsad qiladi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) esa moliyaviy hisobotlarning tayyorlanishi va taqdim etilishi bo'yicha umumjahon darajasida qabul qilingan me'yorlardir. O'zbekiston Respublikasi 2018 yildan buyon xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) ga o'tishni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda. Bu jarayon, avvalo, mamlakat iqtisodiyotining ochiqligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va biznes muhitini yaxshilash maqsadida olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi "Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga o'tishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ - 4611 sonli Qarori moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarning strategik yo'nalishlarini, shu jumladan investorlarning ham, shuningdek xalqaro prinsiplarga muvofiq moliyaviy axborotlarni solishtirilishi, taminlanishini hisobga olgan holda keng joriy etishga yo'naltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan strategiyalar doirasida, moliyaviy hisob va audit bo'yicha xalqaro standartlarga mos keladigan normativ-huquqiy baza yaratilmoqda.

Moliyaviy hisobot — bu kompaniyaning moliyaviy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etuvchi hujjatdir. U investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun muhim ahamiyatga ega. Moliya hisoboti sifatli bo'lishi uchun uning to'g'ri tayyorlanishi, shaffofligi va ishonchligi zarurdir. Xalqaro audit standartlariga muvofiq, auditorlar kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilgan moliya hisobotlarini baholaydi hamda ularning haqiqatan ham to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi.

Moliyaviy hisobot— bu kompaniyaning moliyaviy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etuvchi hujjatdir. U investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun muhim ahamiyatga ega. Moliya hisoboti sifatli bo'lishi uchun uning to'g'ri tayyorlanishi, shaffofligi va ishonchligi zarurdir. Xalqaro audit standartlariga muvofiq, auditorlar kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilgan moliya hisobotlarini baholaydi hamda ularning haqiqatan ham to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston sharoitida muammolar

Xalqaro audit va moliya hisoboti standartlarini O'zbekistonda joriy etishda bir qancha muammolar mavjud:

1. Tajribali mutaxassislarning yetishmasligi: Ko'plab auditorlik tashkilotlari malakali kadrlarni izlayapti, ammo ularga talab yuqori.
2. Normativ-huquqiy baza: Milliy qonunchilikdagi bo'sliqlar hamda ayrim me'yorlarni yangilash zarurati.
3. Mahalliy biznes madaniyati: Korxonalar orasida xalqaro standartlarga o'tishga nisbatan ehtiyotkorlik mavjud; ko'pchilik kompaniyalar hali ham an'anaviy usullar bilan ishlashni afzal ko'radi.
4. Ta'lim tizimi: Auditorlik sohasidagi ta'lim dasturlari xalqaro talablariga mos kelmayapti.

Kelajak istiqbollari

O‘zbekistonda xalqaro audit va moliya hisobi standartlarini qo‘llash masalasida kelajak istiqbollari quyidagi yo‘nalishlarda belgilanishi mumkin:

- Ta'lim dasturlarini takomillashtirish: Auditorlik sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun yangi kurslar ochish.
- Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish: Milliy qonunchilikni xalqaro talablariga moslashtirish.
- Biznes madaniyatini o‘zgartirish: Mahalliy korxonalarni xalqaro talablarni qabul qilishga rag‘batlantiruvchi dasturlar ishlab chiqish.
- Auditorlik tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash zaruriyati.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “ Auditorlik faoliyati to‘g‘risida” gi Qonun (yangi tahrir) 2021 yil. 25 fevral.
2. Abdumannonovna, T. D., & Habibullo G'anijon o'g, A. (2024). The Role of International Audit Organizations in the Transition to International Standards in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 2(2), 1-6.
3. Abdumannonovna, T. D., & Sherzod, K. S. (2024). SIGNIFICANCE AND ROLE OF INTERNATIONAL AUDITING STANDARDS. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 57-60.
4. Turumova, D. A. (2023). Audit as a Factor of Increasing the Efficiency of Enterprises. *Nexus: Journal of Innovative Studies of Engineering Science*, 2(11), 92-95.
5. Turumova, D. A. (2023). Foreign Experience of Increasing the Attractiveness of Financial Reporting. *Nexus: Journal of Innovative Studies of Engineering Science*, 2(11), 87-91.
6. Turumova, D. A. (2023). O ‘ZBEKISTONDA ICHKI NAZORAT TIZIMI–AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONINING ASOSIY ELEMENTI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 608-612.
7. Turumova, D. A., & o‘g‘li Tolibboyev, Q. G. (2023). AUDITORLIK FAOLIYATIDA TANLAB TEKSHIRISHNING MOHIYATI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(6), 234-240.
8. Turumova, D., & Rayimkulov, A. (2024). THE NEED FOR MODERN TECHNOLOGIES IN ACCOUNTING AND AUDITING. *Technical science research in Uzbekistan*, 2(7), 284-287.
9. Турумова, Д. (2022). Банк кредитлари аудитини такомиллаштириш масалалари. *Science and Education*, 3(10), 640-645.
10. Турумова, Д. (2022). Банк назоратида ички ва ташқи аудит ўтказишнинг аҳамияти. *Science and Education*, 3(12), 1013-1022.
11. Турумова, Д. А., & Хазраткулов, Ж. (2024, October). Внутренний Аудит В Современном Банковском Сфере. In *International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies* (Vol. 10, pp. 90-93).
12. Турумова, Д., & Райимкулов, А. (2024, October). НЕОБХОДИМОСТЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В БУХГАЛТЕРСКОМ УЧЕТЕ И В АУДИТЕ. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE* (Vol. 1, No. 10, pp. 284-287).